MADANIYAT VA SAN'AT TA'LIMI TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Djamaldinov Alisher Xudayberdievich
O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
Madaniyat ta'limi markazi direktori

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasi ta'lim tizimi, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va sohadagi jiddiy o'zgarishlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, madaniyat va san'at sohasi ta'lim tizimning ijtimoiy o'zgarishlarda rolini oshirishdagi ahamiyati haqida so'z ketadi.

Аннотация: В статье рассматривается система образования в сфере культуры и искусства в Узбекистане, проводимые в ней реформы и существенные изменения, а также значение системы образования в сфере культуры и искусства в повышении её роли в социалных преобразованиях.

Abstract: The article examines the system of education in the field of culture and art in Uzbekistan, the reforms and significant changes carried out in it, as well as the importance of the education system in the field of culture and art in increasing its role in social transformations.

Kalit so'zlar: Ta'lim, madaniyat va san'at sohasi, san'at.

Ключевые слова: Образования, сфера культуры и искусства, искусство

Key words: Education, culture and arts, art.

Kirish. Yurtimiz rivojining hozirgi bosqichida madaniyat va san'at sohasi ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ijodkor va iste'dodli yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda, ayniqsa, uzoq yillik tarixga ega madaniyat va san'at ta'lim tizimi o'rganish, uning hozirgi holatini hamda sohada amalga oshirilgan islohotlarni baholash va mohiyatini chuqurroq tadqiq qilish muhimdir.

Bugungi kunda barcha sohalar qatori ta'lim, madaniyat va san'at, ma'naviy-ma'rifiy ishlar rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda, bu yo'lda farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Madaniyat ta'limi markazi" davlat muassasasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 20-dekabrdagi 862-son qarorida [1] qator vazifalar belgilanishi madaniyat va san'at ta'lim tizimini o'rganish masalalarini dolzarbligini oshiradi.

2025-yilda madaniyat va san'at sohasi taraqqiyoti va rivoji uchun jiddiy hodisa – Madaniyat ta'limi markazi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 862-son qarori asosida umummilliy zarurat taqozosiga asosan tashkil etilgan Madaniyat ta'limi markazi yurtimizda madaniyat va san'at sohasi ta'limi uchun jiddiy qadam edi.

Madaniyat ta'limi markazi tashkil etilishi bilan uning tarkibiga 326 ta bolalari musiqa va san'at maktablari, 9 ta oliy ta'lim muassasalari va uning filialari, 29 ta ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktab va maktab-internatlari hamda 2 ta malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari kiritilgan.

"Madaniyat va san'at ta'limi" iborasi uch so'z birikuvidan iborat: madaniyat va san'at hamda ta'lim. "Madaniyat" deganda (sivilizatsiya) jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui [2] nazarda tutiladi. "San'at" deganda esa (ish, mehnat; mahorat; kasb-xunar) Ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqeylikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi har bir ayrim sohasi [3] tushuniladi. "Ta'lim" deganda esa (o'rgatish, o'qitish, ilm berish; ma'lumot) bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi [4] tushuniladi.

Mazkur tushuncha odatda, Madaniyat ta'limi markazi tizimidagi madaniyat va san'at yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga nisbatan qo'llaniladi.

Madaniyat va san'at ta'limi o'quvchilarning har tomonlama kamol topishining ajralmas qismidir. Uning mazmun-mohiyati tabiat va jamiyat go'zalligini anglash, odamlar o'rtasidagi munosabatlarning go'zalligini anglash, tevarak-atrofdagi voqelikni badiiy nigoh bilan idrok etish, badiiy iste'dodni tarbiyalashdan iborat. Madaniyat va san'at ta'limi yoshlarga badiiy bilimlarni o'rganish, badiiy asarlarni qadrlash va badiiy mahoratga ega bo'lish asosida badiiy tafakkurni shakllantirish, badiiy

did va badiiy ruhga ega bo‘lish, insoniy madaniyatni meros qilib olish, boy tuyg‘ularni tarbiyalash va komil shaxsni tarbiyalash, baxtli hayot kechirish imkonini beradi.

Madaniyat va san’at ta’limi go‘zallikni boshlang‘ich nuqta sifatida qabul qiladigan ta’limdir, shunda bolalar erta yoshdanoq o‘zlarining haqiqiy ichki tuyg‘ularini ifoda etishga o‘rganadilar.

Madaniyat va san’at ta’limi hissiyotlarni tarbiyalash va yoshlarda yaxshi g‘oyaviy sifatni tarbiyalash vazifasini bajaradi. Ajoyib san’at asarlarida aks ettirilgan narsalar, odatda, muallif tomonidan hayot prototipini yanada yorqinroq va tipik qilish uchun qayta ishlanadi, shuning uchun narsalarning mohiyatini yanada aniqroq aks ettiradi.

Mamlakatda madaniyat va san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish xususan, ta’limni ham an’anaviy, ham butkul yangi shakllarda rivojlantirish davlatning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

O‘zbekistonda madaniyat va san’at ta’limi sohasini rivojlanish davrining yangi bosqichini hamda sohani modernizatsiya qilish jarayonlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 862-son qarori belgilab berdi.

Mazkur hujjat bilan soha samaradorligini oshirishga doir bir qancha chora-tadbirlar belgilangan. Biz quyida madaniyat va san’at ta’limi sohasini samaradorligini oshirish uchun tizimdagi jiddiy o‘zgartirishlarga to‘xtalamiz.

B i r i n ch i s i: vakolatli davlat boshqaruvi organlari bilan madaniyat va san’at sohasidagi ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va o‘quv jarayonini tashkil etishga taaluqli masalalar yuzasidan qonunchilikda belgilangan choralarni qo‘llash;

I k k i n ch i s i – madaniyat vazirligi tizimida ta’lim tashkilotlarida iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha yaxlit tizimini yaratish, mazkur masalalar faoliyatini yagona shaklda muvofiqlashtirish va ularga umumiy rahbarlik qilish;

U ch i n ch i s i – umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim, kasbiy hamda oliy ta’lim tashkilotlarida madaniyat va san’at yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim sifati hamda o‘quv-tarbiya jarayonining ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlariga muvofiqligini belgilangan tartibda monitoring qilish hamda tizimida ta’lim

tashkilotlari bo‘lgan vazirliklar va idoralarga taqdimnomalar kiritish;

T o‘ r t i n ch i s i – madaniyat va san’at ta’limini rivojlantirishda vazirlik va idoralar vakillari, ta’lim tashkilotlarining olimlar, amaliyotchi pedagog, xorijiy ekspertlarni jalb etish, kadrlar tayyorlash sifati muammolari bo‘yicha xalqaro konferensiyalar, kongresslar, simpoziumlar va o‘quvlar tashkil etish hamda ularda ishtirok etish huquqi berildi.

Ta’kidlash kerakki, yoshlarni mutaxassislik fanlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan va kasbga yo‘naltirilgan holda o‘qitish, ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash hamda yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash madaniyat va san’at ta’limining bosh maqsadi hisoblanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, madaniyat ta’limiga qaratilayotgan e’tibor tufayli ilmiy ijodiy ishlarda ham salmoqli o‘sish bo‘ldi. Keyingi yillarda sohada ijodkorlarning milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini tarannum etuvchi yuksak darajadagi yorqin san’at asarlarini yaratish, tarixiy-madaniy boyligimizning bir qismi bo‘lgan noyob san’at turlarini saqlab qolish hamda avlodlarga yetkazishda katta qadamlar qo‘yildi.

Ma’lumki, Madaniyat ta’limi markazi madaniyat va san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish, ta’limning izchilligini ta’minlash, ta’lim tashkilotlari faoliyatini metodik jihatdan muvofiqlashtirish, ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirish bilan bog‘liq vazifalarni hal etishga vakolatli bo‘lgan davlat muassasasi sifatida 29 ta ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatilari, 326 ta bolalar musiqa va san’at maktablari, 9 ta oliy ta’lim muassasasi va filiallari, 2 ta qayta tayyorlash hamda malaka oshirish markazi faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Diqqat qilinsa, deyarli ta’limning barcha turi: umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududlar kesimida qamrab olingan.

Madaniyat va san’at ta’limi bugungi kundagi holati, uning yangi bosqichini tahlil qilish natijasida bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatiga oid me’yoriy hujjatlar ro‘yxati, ularning yuritish yo‘riqnomalari va shakllari belgilangan tartibda ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 2025-

yil 22-avgustdagi 385-son buyrug‘i bilan tasdiqlandi.

Mazkur hujjat tizimdagi 326 ta bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarni yagona shaklda yuritish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda yuritiladigan ish hujjatlarini maqbullashtirish hamda boshqaruv jarayonini ortiqcha qog‘ozbozlikdan holi etish orqali yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Ta'lim sifatini yanada oshirish, o‘quv-metodik ta'minotni yaxshilash maqsadida Markaz huzurida Ilmiy-metodik kengash faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu kengashda 92 nafar sohaning yetuk mutaxassislari va professor-o‘qituvchilaridan iborat 8 ta tarmoq kengashi shakllantirildi.

Ta'lim tashkilotlarining mutaxassislik fanlari bo‘yicha pedagog kadrlarining o‘quv fanidan malaka sinovlari ijodiy va nazariy (og‘zaki, yozma) shaklda o‘tkazilishi bo‘yicha qo‘shma qaror imzolanib, jami 8 190 nafar pedagog xodimlari attestatsiyadan o‘tkazildi.

Kuzgi attestatsiya natijalarining tahliliga ko'ra 4329 nafar pedagog kadrlarning 787 nafari oliy toifaga, 1 491 nafari birinchi toifaga, 956 nafari ikkinchi toifaga, 301 nafari o‘z mutaxassis toifasiga, 777 nafari navbatdan tashqari turi bilan qatnashganligi malaka toifasi o‘zgartirishsiz qoldirildi, 17 nafari mutaxassis lavozimiga muvofiq emas deb toplidi.

Shuningdek, Ta'lim tashkilotlari uchun Davlat ta'lim talablari ishlab chiqildi va manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda tasdiqlandi.

Tizimdagi barcha ta'lim muassasalari uchun kengaytirilgan avgust kengashi tashkil etildi. Unda 800 nafarga yaqin soha vakillari ishtirok etdi hamda sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarda to‘plangan tajribalar tahlilidan kelib chiqib avgust kengashi doirasida respublika o‘quv-seminari tashkil etildi. Bugungi kunga qadar jami 73 ta ta'lim tashkilotlari, 2 ta malaka oshirish markazlari va Farg‘ona viloyatida 174 ta umumiy o‘rta ta'lim maktablari hamda 2 ta oliy ta'lim muassasalari tanqidiy o‘rganildi. O‘rganish natijalariga ko‘ra ta'lim sifatini yanada oshirishga oid taklif va tavsiyalar shakllantirildi.

Madaniyat va san’at ta’limi jamiyat taraqqiyotining qudratli omilaridan biri. Shu bois, mazkur sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q.

Madaniyat va san’at ta’lim sohasiga qaratilayotgan e’tibor hamda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli ilmiy ijodiy ishlarda ham salmoqli o‘sish bo‘ldi. Keyingi yillarda sohadagi ijodkorlarning milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini tarannum etuvchi yuksak darajadagi yorqin san’at asarlarini yaratish, ta’lim sifatini yanada oshirish borasida katta qadamlar qo‘yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrdagi 862-son qarori

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: T: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 521-bet.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: T: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 442-bet.